



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 534 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospiatal pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назокат Нормаматовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvis Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукимжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	359
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Bo'linishga doir olimpiada masalalarini yechish metodikasi va ularning ilmiy-amaliy tahlili	365
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga kelish omillari	369
<i>Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi</i>	
Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	374
<i>Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyeich</i>	
Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati	379
<i>Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	383
<i>Ali Tursaotov</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning sanogen refleksiyani rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari	388
<i>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</i>	

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish	395
<i>Madjitova Sitara Sobit kizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	399
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish omillari	402
<i>Ummatov Baxtiyor</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	407
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboyev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Ta'lim tizimida gender tengligi	410
<i>Nazarova Malohat Axmedovna, Sayfiddinova Barno, Axmedova Nasiba</i>	
Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning mazmun-mohiyati	414
<i>Odilova Mahfuza Ochilovna</i>	
Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ota-ona va surdopedagog hamkorligini rivojlantirish texnologiyasi	418
<i>Rahimova Nargiza Alisherovna</i>	
O'zbek tili darslarida milliy kontentga asoslangan matnlarni tanlash tamoyillari	421
<i>Saparbayeva Indira Shadibekovna</i>	
Autizm sindromi - o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalar tahlili	424
<i>Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish	428
<i>Sharafutdinova Durdona Akmelevna, Niyazova Umida Shomansurovna</i>	
Tabiat bilan tanishtirishda turli metodlarni qo'llash va tabiat bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati	433
<i>Xalmatov Misliddin Muxammadovich</i>	
Kommunikativ qobiliyat tushunchasining psixologik mazmuni	437
<i>Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna</i>	
Biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	443
<i>Moxigul Muydin qizi Burxanova</i>	
Культура речи медицинского работника	447
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна</i>	
Образ города как пространства памяти и идентичности в прозе дины рубиной	454
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Назаров Бехруз, Фарходов Диёрбек, Бурибайев Нодир</i>	
Rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati va pedagogik ahamiyati: nazariy asoslar	457
<i>Arabova Gulnura Yuzboy qizi</i>	
Типология трудностей формирования навыков иноязычного говорения в начальной школе	461
<i>Огай Мукаддасхон Халваевна</i>	
Kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	468
<i>A'zamova Sarvinoz Aftandil qizi</i>	
Значение интегративного психолингвистического тренинга в процессе усвоения речи в психолингвистике	477
<i>Ахмедов Шавкат Асадилов</i>	
Absolyut va nisbiy vaqt tushunchalarining lingvistik mohiyati va farqlanish mezonlari	482
<i>Anvarov Abdulhamid Almaljon o'g'li</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	486
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
The role of instructional scaffolding in developing critical thinking skills among EFL University students	490
<i>Ergasheva Fayoza Bahodir qizi, Shukurova Gulchinoy G'ulomovna</i>	
Sun'iy intellekt va kengaytirilgan/virtual haqiqat texnologiyalari integratsiyasi asosida ekologik ta'limni shaxsiylashtirish: metodologik yondashuv va istiqbollar	495
<i>Maxmudov Abdigodir Yusupovich</i>	



Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari.....	500
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati.....	505
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi monolingval va bilingval o'quvchilarning temperament xususiyatlari.....	508
<i>Pulatova Gulnoza Murodilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim yo'nalishini joriy qilinishi va prinsiplarga asoslanganligi.....	512
<i>Rasulova Mastura Adilovna, Narxolova Farangiz Umidjon qizi</i>	
Pedagogical Foundations for Developing Competencies in Organizing Practical Classes in Zoology Among Pre-Service Biology Teachers	516
<i>Saidova Dilnavoz Bakturdiyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda fasilitatorlikning amaliy tatbig'i	521
<i>Saydulloyeva Shoxsanam Mashrafjonovna</i>	
Ingliz tilini o'qitishda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning konseptual-metodologik modeli	525
<i>Sherbekova Madinabonu Shavkat qizi</i>	
Talabalardagi aqliy qobiliyatlar kasbiy muvaffaqiyatning asosi sifatida	530
<i>Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Raxmonov Sa'natjon Baxtiyorovich</i>	



ADABIYOT DARSliklari UCHUN YANGI O'ZBEK ADABIYOTI NAMUNALARINI SARALASHNING ILMIY- METODIK ASOSLARI

Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslarida o'rganish uchun yangi o'zbek adabiyotidan yuksak badiiy asarlar tanlash, shu asarlar orqali el ardog'idagi adiblarga hurmat va ehtirom hissini uyg'otish, o'quvchilarga o'rganilayotgan asarning tayyor talqinlarini singdirishdan voz kechib, muayyan savol va topshiriqlar asosida asarga mustaqil va tanqidiy munosabatini shakllantirish, adabiyot darsliklari uchun tanlangan asarlarni tahlil qilish, o'quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirishga doir yondashuvlarni milliy adabiy ta'lim tajribasida o'rganish, tahlil qilish, tadqiq etish, o'quvchilarda davlat tilidagi durdona adabiy asarlarni o'qish istagini yuzaga keltiradigan omillar, asar tanlashning asosiy uch jihatini (badiiy qiymatining yuksak bo'lishi, ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligi, o'qigan odamga zavq-shavq bag'ishlashi) ta'minlashda hisobga olish zarur bo'lgan holatlarga aniqlik kiritildi.

Kalit so'zlar: darslik, dastur, didaktika, adabiy ta'lim, uslub, janr, badiiy talqin.

Abstract: This article specifies the issues of selecting highly artistic works from modern Uzbek literature for study in general secondary school literature classes and fostering a sense of respect and esteem for distinguished writers through these works. It addresses moving away from instilling ready-made interpretations of the studied works in students, focusing instead on developing their independent and critical attitude toward the text through specific questions and tasks. Furthermore, it analyzes the works selected for literature textbooks, explores approaches to developing students' reading literacy within the experience of national literary education, and identifies the factors that motivate students to read masterpiece literary works in the state language. It also clarifies the conditions that must be considered to ensure the three main aspects of work selection: high artistic value, social significance, and the ability to inspire and delight the reader.

Key words: textbook, curriculum, didactics, literary education, style, genre, artistic interpretation.

Аннотация: В данной статье конкретизированы вопросы выбора высокохудожественных произведений новой узбекской литературы для изучения на уроках литературы в общеобразовательных школах, формирования через эти произведения чувства уважения и почтения к народным писателям. Рассматривается отказ от навязывания учащимся готовых интерпретаций изучаемого произведения и формирование у них самостоятельного и критического отношения к тексту на основе конкретных вопросов и заданий. Также анализируются произведения, выбранные для учебников литературы, исследуются подходы к развитию читательской грамотности учащихся в опыте национального литературного образования. Определены факторы, пробуждающие у учащихся желание читать шедевры художественной литературы на государственном языке, и аспекты, которые необходимо учитывать при обеспечении трёх основных критериев выбора произведения (высокая художественная ценность, социальная значимость, способность доставлять эстетическое удовольствие читателю).

Ключевые слова: учебник, программа, дидактика, литературное образование, стиль, жанр, художественная интерпретация.

KIRISH

Adabiyot darslarida o'tiladigan har qanday badiiy asar o'quvchi ongida qayta ishlanib, uning dunyoqarashi va tafakkur doirasida o'z ifodasini topadi. Bugungi kun adabiy ta'limi esa badiiy asarlarni o'qitish va o'quvchi ongiga yetkazishning yangi, samarali usullari ustida bosh qotirishni talab etmoqda. Zero, yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta'limni isloh etish va uni rivojlantirish, jumladan, 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ko'rsatib o'tilgan "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;" bo'yicha amaliy vazifalar belgilab berilgan. [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil



29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi PF-5712-son¹ Farmoniga 1-ilova, 1-bob. Umumiy qoidalar, 2019: 1]

Zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarini maktab darsliklariga kiritishda aniq pedagogik va didaktik mezonlarning yetishmasligi o'quvchilarning badiiy didini shakllantirish va davlat tilidagi durdona asarlarga nisbatan qiziqishini uyg'otishda muayyan bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, zamonaviy asarlarni tanlashning ilmiy-metodik asoslarini belgilash, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladigan savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish bugungi kun adabiyot metodikasi fanining eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu maqolamizda tadqiqotning obyekti qilib umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslarida yangi o'zbek adabiyoti namunalarini o'qitish hamda o'quvchilarda kitobxonlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Predmeti esa adabiyot darsliklari uchun zamonaviy badiiy asarlarni saralab olishning pedagogik-didaktik tamoyillari, mezonlari hamda o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga doir metodik yondashuvlardir.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darsliklari va dasturlari uchun yangi o'zbek adabiyotidan yuksak badiiy asarlarni tanlashning ilmiy-pedagogik hamda didaktik asoslarini ochib berish, ular orqali o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy fikrlashini va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yuzasidan samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotimizning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Milliy adabiy ta'lim tajribasida o'quvchilarning kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va tadqiq etish;
2. Adabiyot darsliklari uchun zamonaviy asarlarni tanlashning uch asosiy jihati: yuksak badiiy qiymati, ijtimoiy ahamiyati va o'quvchiga estetik zavq bag'ishlashi kabi mezonlarning pedagogik asoslarini aniqlashtirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek adabiyoti metodikasida A. Zunnunov, Q. Yo'ldoshev, H.M. Suyunov, N.I. Tayloqov, Q.T. Olimov, G.S. Ergasheva, M. To'ychiyeva kabilarning tadqiqot ishlarida maktab darsliklari muammolari o'rganilgan. Jumladan, metodist olim Q. Yo'ldoshev birinchilardan bo'lib darsliklarda matn ustida ishlash va badiiy-estetik tahlilni birinchi o'ringa olib chiqdi. Uning yondashuviga ko'ra, adabiyot darsligi o'quvchiga shunchaki tarixiy ma'lumot beruvchi manba emas, balki bolada badiiy did, go'zallikni his qilish va so'z san'atiga muhabbat uyg'otuvchi didaktik vosita bo'lishi kerak. U yaratgan dasturlar va darsliklarda yozuvchi hayoti haqidagi quruq faktlar qisqartirilib, e'tibor bevosita asar matnining badiiy tahliliga qaratildi.

M. Mirqosimova, S. Matjonov, Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, M. Jamolitdinov, M. To'ychiyevalar tomonidan adabiyot darsliklariga o'quv materiallarini tanlash muammolari qisman o'rganilgan.

Bulardan tashqari, Harold Blum, Jon Gillori, Wolfgang Izer, Sebastyan Dyubua, V.V. Golubkov kabi tadqiqotchilarning ishlarida darslikka qaysi asarlarni kiritish (kanon shakllantirish) va ularning o'smirlar tanqidiy tafakkuriga ta'siri masalalari keng tahlil qilingan. Ammo adabiyot o'qitish kesimida adabiyot darsliklarining tub negizini belgilovchi badiiy asarlarni saralab olishning konseptual mazmuni va tarkibiy metodlari shu paytgacha yaxlit tizim sifatida, maxsus metodik jihatdan tadqiq etilmagan. Shu jihatdan ushbu tadqiqotda ko'rilayotgan masala dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uzoq yillardan beri badiiy asar mutolaasi va tahlili an'anaviy estetik tamoyilga asoslangan. Adabiyot darsliklarida keltirilgan badiiy asarlar yoki ulardan olingan parchalar tahlili o'quvchi e'tiboriga tayyor holda havola etilgan.

Ta'lim mazmunidan badiiy jihatdan yuksak, pishiq asarlar joy olishi zarurligi shubhasiz bo'lgani holda adiblar ham hisobga olinishi lozim. Zero, asari orqali taniqli adibni anglagan, bilgan, unga nisbatan o'zida hurmat hissini tuygan, tegishli mutolaa ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchi keyinroq boshqa taniqli yozuvchi yoki sho'irga qiziqish tug'ilganda uning asari bilan tanishish yo'lini tanlaydi.

O'quvchilarning o'zbek adabiyoti haqida yetarli tasavvur hosil qilishlari ham, atoqli adiblar yaratgan nodir asarlar, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari, milliy ma'naviyati, urf-odatlar, adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishlari ham tanlanadigan asarlar majmuasiga ko'p jihatdan bog'liq ishdur.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda aniq milliylik orqali namoyon bo'ladigan umumiy baynalmilal mazmun ham mavjud. Tanlanayotgan asarlarning bu jihati ular mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ehtimol, dastlabki kezlarda, ayniqsa, quyi sinflarda ko'proq

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



ana shunday mushtarak asarlar ajratilgani ma'quldir. Chunki o'zbek bo'lmagan kitobxon o'zbek adabiyoti asarlarini o'rganishda o'z badiiy idroki tajribasiga asoslanadi. O'z milliy adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydi. Asar mazmunini tushunish ana shunday murakkablashgan vaziyatlarda amalga oshadi.

Ayniqsa, bugungi integratsiyalashuv, globallashuv davrida ulg'ayayotgan o'quvchi uchun tayyor talqinlar uni adabiyotdan bezdiradi. Zotan, badiiy adabiyot namunasi o'quvchi tomonidan to'liq his etilib, anglanib, nafis adabiyotning sehr-u jozibasidan atroflicha xabardor bo'lingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir [Yo'ldoshev Q. 1996: 68.]. Asar tanlash masalasiga monografik yondashilganligi nuqtayi nazaridan muhim va dolzarbdir.

Bugungi zamonaviy adabiy ta'lim o'quvchini shunchaki mutolaa kishisidan o'zining tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Ayni masalaning g'arb va sharq olimlari qarashlari asosida tahlil qilinishi, asar tanlash tushunchasining nazariy asoslarini ilk marotaba tajriba-sinov sifatida umumo'rta ta'lim adabiyot darsliklari misolida o'rganish, o'qitishning an'anaviy usullaridan chekinib, asar tanlash mezonlarini ishlab chiqish ham ishning yana bir zarurati va dolzarbligini ko'rsatadi. Badiiy asarlarni tanlashga oid qarashlarni milliy adabiy ta'lim jarayonlariga tatbiq etish, muayyan xulosalar chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish ham bugunning eng muhim vazifalaridandir.

Alohida ta'kidlash lozimki, adabiyotning ta'sir kuchi, maxsus xususiyatlari qadim-qadimdan yaxshi ma'lum bo'lgan. Bu haqda, jumladan, Aristotel shunday deydi:

"Aslida asar shunday yozilishi kerakki, u sahnada ko'rilmaganida ham, bo'lib o'tadigan voqeani tinglovchi har bir kishi, xuddi Edip haqidagi rivoyatni tinglaganday, hodisalarning o'sib borishidan g'am chekuvchiga nisbatan o'zida hamdardlik sezsin va vujudi jivirlab seskansin" [Aristotel 1980: 28].

Odatda adabiyot kursi uchun asar tanlashda notanish so'z va til hodisalarining ko'p bo'lishi darslik mualliflarini matnni qisqartirishga, boshqacha aytganda, adaptatsiyalashga undaydi. Badiiy asarlarni adaptatsiyalash bilan pedagogik matnshunoslik shug'ullanadi. U darsliklarda va o'quv qo'llanmalarida badiiy matnlarni pedagogik jihatdan taqdim etish prinsip va texnikasini ishlab chiqish ustida ish olib boradi.

O'quvchilarni ortiqcha psixologik bosimdan xalos qilish uchun asarlarni adaptatsiya qilish yo'lidan borish ham yaxshi natija beradi.

Umuman, badiiy asarni qisqartirish, uni adaptatsiyalash nihoyatda ustalik bilan amalga oshirilmog'i lozim; pedagogik jihatdan, emotsional-ekspressivlik jihatidan ahamiyatli o'rinlar mumkin bo'lgan darajada qisqarib ketmasligi darkor.

Aristotel o'zining "Poetika" asaridayoq badiiy asarning mukammalligi haqida gapirib, badiiy asarning "muayyan hajmga ega bo'lgan, tugal va bir butun voqeaning tasviri ekanligini" ko'rsatadi. U yozadi: "Yaxlit narsa ibtidosi, o'rtasi va intihosi bo'lgan narsadir. Ibtido boshqa narsaning ketidan kelishi zarur bo'lmagan, aksincha, tabiat qonuniga ko'ra, orqasidan nimadir keluvchi yoxud sodir bo'luvchi narsadir; aksincha, intiho zaruriyat tufayli yoxud odatga ko'ra albatta boshqa narsa ketidan keluvchi narsadir; undan keyin esa hech narsa bo'lmaydi; o'rta esa o'zi va boshqa narsaning ketidan keluvchi va uning ketidan ham boshqa narsaning kelishiga asoslangan" [Aristotel 1980: 19].

Bugina emas, badiiy asarni umumiy holatda rivoyat deb olgan Aristotel o'z xulosasida ham nihoyatda e'tiborli fikrni aytadi:

"Shunday qilib, yaxshi tuzilgan rivoyatlar duch kelgan joydan boshlanib, yana duch kelgan joyda tugamasligi, balki ko'rsatilgan qoidalar asosida bo'lishi lozim" [Aristotel 1980: 19].

Aristotel "Poetika"sida adaptatsiya qilish haqidagi eng muhim qonuniyat, qismlar orasidagi mantiqiy aloqadorlik borasida alohida fikrlar bayon etilgan: "Voqealarning qismlari, – deb yozadi u, – shunday joylashtirilishi lozimki, biron qism almashtirilganda yo olib tashlanganda yaxlit narsa o'zgarib ketsin, yo harakatga kelsin, chunki mavjudligi yo mavjud emasligi sezilmayotgan narsa butunning uzviy qismi bo'la olmaydi" [Aristotel 1980: 21].

Tanlangan asarlarni adabiy o'qish kursida qay tarzda guruhlash kerakligi xususidagi masala ham muhim ahamiyatga ega. V.A. Nikolskiy guruhlashga uch xil yo'ldan borish kerakligini ko'rsatadi:

- bir janrdagi asarlarni yonma-yon qo'yish;
- mavzu jihatidan bir-biriga yaqin asarlarni tanlash;
- nihoyat, asarlarni xronologik tartibda joylashtirish [Nikolskiy 1971: 78].

Adabiy o'qish dasturini tuzish haqida boshqacha fikrlar ham mavjud: bunday dastur tuzish san'ati salbiy tipdan keyin ijobiyni, feodal yer egasidan so'ng dehqonni, tuban kishidan keyin qahramonni, povestdan so'ng romanni, balladadan keyin poemani, she'rdan so'ng prozani berishga borib taqaladi.



Asar tanlashda she'riyatga ham juda katta e'tibor berish kerak. She'rda shoirning shaxsiy kayfiyati, umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham she'rdagi ohang yoki kayfiyatning davr bilan hamohangligiga ham diqqat qilinadi. Bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib, asar tanlashning quyidagi prinsiplariga diqqatni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- o'rganish uchun tanlangan asarning o'quvchilarning tanlaydigan kasblari bilan bog'liqligi, qiziqishlariga mos kelishiga e'tibor berish;
- asar mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar o'quvchiga tushunarli bo'lishi;
- ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarni tanlash;
- asar qahramonlarining ruhiyati va xarakterini o'quvchi tasavvur hamda his qila olsin;
- tanlanadigan asar til jihatidan tushunarli bo'lsin yoki o'quvchida tushunish bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar tug'dirmasligi. Asar tilining hozirgi adabiy til me'yorlariga yaqin bo'lishiga e'tibor berish;
- tanlangan asar badiiy jihatdan yuksak bo'lmog'i, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsata oladigan, uning badiiy didini tarbiyalashga, ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan bo'lishi;
- mavzu va janrlari xilma-xil, uslubi rang-barang asarlarni tanlashga e'tibor berish;
- o'quvchi yoshiga mos, hajmi jihatidan juda katta bo'lmagan asarlarni mo'ljallash;
- qardosh va jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslab o'rganish imkonini beruvchi asarlarni tanlash.

Shunday qilib, o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilashda adabiy tayyorgarlikni ko'zda tutgan holda asar tanlash ishlarini amalga oshirish, buning uchun bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan e'tirof etilgan badiiy yuksak parchalarni ajratish, bunda asarning hajmi, notanish so'zlarining miqdori, unda so'z qo'llanishi, tanlanadigan parchaning mavzu va janr rang-barangligiga erishish darkor.

Asar tanlashda qahramonlik, dramatik, romantik, tanqidiy yo'nalishdagi asarlarga ham e'tibor berish talab etiladi. Bular orasida muayyan nisbat ta'minlanishi lozim.

Asar tanlashda uning axloqiy tarbiya maqsadlariga muvofiqligi ham nazarda tutilishi kerak.

Metodist olim O. Musurmonova ta'kidlaganidek, "Milliy adabiyot har bir millatning xarakteri, his-tuyg'ulari, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bosqichlarini haqqoniy chiziqlarda badiiy ifodalaydi" [Musurmonova 1993: 14]. Bu fikr ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslari uchun badiiy asar tanlash ishlariga to'g'ri yo'nalish bera oladi. O'quvchilar ana shunday matnlar asosida o'zbekni, o'zbek xalqini, uning milliy ma'naviyati va qadriyatlarini, ayni paytda xulq-atvorini tushunish va bularga hurmat bilan qarash mazmunida tarbiya topadilar.

O. Musurmonova o'zbek maktablarining adabiyot darslaridagi kamchiliklar haqida gapirib, shunday deydi: "...o'quvchilarga dars berish jarayonida turli tushunchalar haqida bilim beriladi-yu, lekin burch, nomus, muhabbat, do'stlik, yaxshilik, qabohat, adolat, shaxsiyatparastlik, faxr, uyat, g'arazgo'ylik, insonparvarlik, erk, ozodlik, baxt va baxtsizlik, ularning mohiyati haqida juda kam suhbatlashiladi" [Musurmonova 1993: 16].

P. Ravshanov, N. Mirqurbonovlar quyidagi axloqiy tushunchalarga e'tibor qaratadilar: "Adolat, elparvarlik, vatan, ilm-fan, mehnat, hunar, ota-ona, ayollarga munosabat, ustozu shogird, kamtarlik, teng ko'rish, saxovat, to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik, ishq, vafo, himmat, samara, do'stlik, kayfiyat, takallum, mehmonnavozlik, hayo, odob, poklik, xotirlash, badbinlik, zolimlik, manmanlik, shuhrat, ichish, mastlik, qarilik, holni bilish, mansab, nafs, baxillik, ta'ma, xudbinlik" [Ravshanov 1991: 107]. Ushbu tushunchalar ham barkamol avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy badiiy asarlarni maktab adabiy ta'limiga saralab olishning pedagogik va didaktik asoslarini belgilash uchun majmuali metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi:

Nazariy-didaktik tahlil: amaldagi umumiy o'rta ta'lim adabiyot dasturlari va darsliklarining tarkibi qiyosiy o'rganildi. Asar tanlashning uchta bosh mezon (badiiy qiymat, ijtimoiy ahamiyat, estetik zavq) didaktik tamoyillar (izchillik, yoshga moslik, ilmiylik) prizmasidan tahlil qilindi.

Empirik o'rganish: zamonaviy adabiyot namunalari bo'lgan ehtiyojni aniqlash maqsadida umumta'lim maktablarining adabiyot foni o'rganildi. O'qituvchilar o'rtasida zamonaviy asarlarni tahlil qilish metodikasi bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi.

Ekspert baholash: tanlab olingan yangi asarlar adabiyotshunoslar va metodist olimlar tomonidan estetik-pedagogik ekspertizadan o'tkazildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan qiyosiy-didaktik tahlillar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi empirik so'rovnomalar hamda ekspert baholashlari natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari (xususan, 5–6-sinflar) adabiyot darsliklari uchun zamonaviy asarlarni saralab olishning quyidagi pedagogik va didaktik natijalari olindi:

Asar tanlashning uch komponentli didaktik modeli

Tadqiqot natijasida zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarini darsliklarga kiritishda muvozanatni ta'minlovchi uch tomonlama mezonlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotda sinab ko'rildi. Har bir mezonning darslikdagi ulushi o'zaro muvofiqlashtirildi (1-jadval).

№	Mezon nomi	Didaktik vazifasi	Baholash ko'rsatkichlari (Indikatorlar)
1	Badiiy-estetik qiymat	O'quvchida badiiy did va til tuyg'usini o'stirish	Tasviriy vositalarning boyligi, janr xilma-xilligi, uslubiy o'ziga xoslik.
2	Ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat	Milliy va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirish	Insonparvarlik, vatanparvarlik, zamonaviy qahramon obrazi, ekologik madaniyat.
3	Estetik zavq (Emotsionallik)	Kitobxonlikka qiziqish uyg'otish, mutolaa madaniyati	Syujetning dinamikligi, qiziqarlilik darajasi, yosh psixologiyasiga moslik.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Darslik uchun zamonaviy asar tanlash - bu shunchaki o'quv soatlarini to'ldirish yoki matn saralash jarayoni emas, balki mamlakatning ertangi kun fuqarosini, uning ma'naviy va intellektual dunyoqarashini loyihalashdir. Biz darslik sahifalariga olib kirayotgan har bir zamonaviy qahramon, u Hojiakbar Shayhovning kosmosni zabt etayotgan qat'iyatli Shahnozasi [5, C. 96] bo'ladimi yoki Shodiqul Hamroning o'z ildizlarini e'zozlayotgan qahramoni [6, C. 4] bo'ladimi, barchasi o'quvchining shaxsiy munosabatlari va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda jonli andozaga aylanadi. Shunday ekan, darslik yaratishda zamonaviy adabiyot matnlariga pedagogik va didaktik elakdan o'tgan strategik material sifatida qarash, davr nafasi bilan milliy qadriyatlar muvozanatini saqlash - millat kelajagi oldidagi eng mas'uliyatli metodik vazifamizdir.

Adabiyotda yuksak badiiy qimmat tushunchasiga ko'ra, tesha tegmagan, umuman asarda kutilmagan, oxori to'kilmagan so'zlar va til vositalari ishlatilishi kerak. Lekin Izzat Sultonning yana bir ta'kidini inobatga oladigan bo'lsak, "Yozuvchining tili o'zining rango-rang va boyligi bilan ajralib turgan holda, ayni paytda hamma uchun tushunarli bo'lishi ham kerak".

Bugungi zamonaviy ta'limda adabiyot fani o'quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o'rgatadi hamda shu orqali o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: O'qituvchi, 1996.-B.68.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: O'qituvchi, 1996.-B.68.
3. Aristotel Poetika.-T.:Fan 1980: 19.
4. Nikolskiy V.A. Metodika prepodavaniya literaturi v sredney shkole.- Просвещение.: 1971
5. Mirzayeva Z, Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligi.-T.: 2022
6. Mirzayeva Z, Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf darsligi.-T.: 2022
7. Islomova D.D. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari nasriy asarlarni o'rganish (rus guruhlar misolida): Ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2007. – 15-b.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. – 226 b.
9. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 193-b.
10. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma/ – Toshkent, 2020.– 37-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.